

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIY TARAQQIYOT VA KAMBAG‘ALLIKNI
QISQARTIRISH VAZIRLIGI

BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI

Hududiy filial boshlig‘i

Lavozimga mos asosiy talab va vazifalar

Talablar:

- nomzod 30-55 yoshdan oshmagan bo‘lishi;
- iqtisodiyot, moliya, gumanitar yo‘nalishlarda oliy ma‘lumotga ega bo‘lish (magistr);
 - iqtisodiyot, moliya, xalqaro tashkilotlar va bank va shunga yaqin yo‘nalishlarda xamda oliy o‘quv yurtlari yoki ilmiy-tadqiqot markazlarida kamida 5 yil ish stajiga ega bo‘lish;
 - kamida 3 yillik boshqaruv tajribasiga ega bo‘lish;
 - rus va o‘zbek tillarini mukammal bilish hamda o‘z fikrlarini bayon qilish;
 - kompyuter savodxonligi bo‘yicha – Microsoft Word, Excel va Power Point dasturlarida professional darajada ishlay olish;
 - xizmat ko‘rsatish sohasi, innovatsion va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
 - Professional darajani doimiy oshirib borishga intilish, bilim va ko‘nikmalar;
 - axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
 - moliya, bank, iqtisodiyot, shuningdek, oliy o‘quv yurtlari yoki ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib boruvchi rus va ingliz tilini mukammal biladigan nomzodlarga afzalliklar beriladi.

Vazifalar:

1. Aholining tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga qiziqish va manfaatdorligini oshirish.
2. Aholida tadbirkorlik sohasida zaruriy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o‘qitish tizimini joriy etish, mazkur jarayonga xalqaro tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat ta‘lim tashkilotlarini keng jalb qilish.
3. Tadbirkorlik va raqobat muhiti bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish.
4. Boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish va amalga oshirish.

5. Hududlarda tashkil etiladigan o'quv kurslari jarayonini muntazam rivojlantirish.
6. O'quv kurslarini yuqori va sifatli darajada tashkil etish.
7. O'quv kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan tinglovchilarni tadbirkorlik sohasida doimiy qo'llab-quvvatlash.
8. O'quv kurslarining doimiy monitoringini olib borish.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIY TARAQQIYOT VA KAMBAG‘ALLIKNI
QISQARTIRISH VAZIRLIGI

BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI

**Biznes va tadbirkorlik sohalari bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kurslarini
tashkil qilish bo‘limi boshlig‘i**

Lavozimga mos asosiy talab va vazifalar

Talablar:

- nomzod 30-45 yoshdan oshmagan bo‘lishi;
- iqtisodiyot, moliya, texnik yo‘nalishlarda oliy ma‘lumotga ega bo‘lish (bakalavr);
 - iqtisodiyot, moliya, xalqaro tashkilotlar va bank va shunga yaqin yo‘nalishlarda hamda oliy o‘quv yurtlari yoki ilmiy-tadqiqot markazlarida kamida 5 yil ish stajiga ega bo‘lish;
 - kamida 2 yillik boshqaruv tajribasiga ega bo‘lish;
 - rus va o‘zbek tillarini mukammal bilishi hamda o‘z fikrlarini bayon qilish;
 - kompyuter savodxonligi bo‘yicha – Microsoft Word, Excel va Power Point dasturlarida professional darajada ishlay olish;
 - professional darajani doimiy oshirib borishga intilish, bilim va ko‘nikmalar;
 - axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
 - moliya, bank, iqtisodiyot, shuningdek, oliy o‘quv yurtlari yoki ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib boruvchi rus va ingliz tilini mukammal biladigan nomzodlarga afzalliklar beriladi.

Vazifalar:

1. Aholining tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga qiziqishi va manfaatdorligini oshirish.
2. Aholida tadbirkorlik sohasida zaruriy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o‘qitish tizimini joriy etish, mazkur jarayonga xalqaro tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat ta‘lim tashkilotlarini keng jalb qilish.
3. Tadbirkorlik va raqobat muhiti bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish.
4. Boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish va amalga oshirish.
5. Hududlarda tashkil etiladigan o‘quv kurslari jarayonini muntazam rivojlantirish.
6. O‘quv kurslarini yuqori va sifatli darajada tashkil etish.

7. O'quv kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan tinglovchilarni tadbirkorlik sohasida doimiy qo'llab-quvvatlash.
8. O'quv kurslarining doimiy monitoringini olib borish.
9. O'tkaziladigan o'quv kurslariga ish tajribasiga ega bo'lgan malakali trenerlarni jalb qilish.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIY TARAQQIYOT VA KAMBAG‘ALLIKNI
QISQARTIRISH VAZIRLIGI

BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI

**Biznes va tadbirkorlik sohalari bo‘yicha qisqa muddatli o‘quv kurslarini
tashkil qilish bo‘limi bosh mutaxassisi**

Lavozimga mos asosiy talab va vazifalar

Talablar:

- nomzod 25-40 yoshdan oshmagan bo‘lishi;
- iqtisodiyot, moliya, texnik va boshqa yo‘nalishlarda oliy ma‘lumotga ega bo‘lish (bakalavr);
 - davlat tashkilotlarida kamida 3 yillik ish tajribasiga ega bo‘lish;
 - rus va o‘zbek tillarini mukammal bilish hamda o‘z fikrlarini bayon qilish;
 - kompyuter savodxonligi bo‘yicha – Microsoft Word, Excel va Power Point dasturlarida professional darajada ishlay olish;
 - professional darajani doimiy oshirib borishga intilish; bilim va ko‘nikmalar;
 - axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida ko‘nikmalariga ega bo‘lish;
 - moliya, bank, iqtisodiyot, shuningdek, oliy o‘quv yurtlari yoki ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib boruvchi rus va ingliz tilini mukammal biladigan nomzodlarga afzalliklar beriladi.

Vazifalar:

1. Aholini tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga qiziqishi va manfaatdorligini oshirish.
2. Aholida tadbirkorlik sohasida zaruriy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o‘qitish tizimini joriy etish, mazkur jarayonga xalqaro tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat ta’lim tashkilotlarini keng jalb qilish.
5. Hududlarda tashkil etiladigan o‘quv kurslari jarayonini muntazam rivojlantirish.
6. O‘quv kurslarini yuqori va sifatli darajada tashkil etish.
7. O‘quv kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan tinglovchilarni tadbirkorlik sohasida doimiy qo‘llab-quvvatlash.
8. O‘quv kurslari doimiy monitoring qilib borish.
9. O‘tkazilgan o‘quv kurslari hisobotlarini doimiy ravishda yuritib borish.

- 10.** Tashkil etiladigan o'quv kurslari joyi, sanasi va boshqalar haqida tinglovchilarga ma'lumot berish.
- 11.** O'tkazilgan o'quv kurslari yakunida tinglovchilarga sertifikatlarni taqdim etish.

**O‘ZBEKISTON RESUBLIKASI
IQTISODIY TARAQQIYOT VA KAMBAG‘ALLIKNI
QISQARTIRISH VAZIRLIGI**

**BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI
HUDUDIY FILIALLARI**

**AHOLINI TADBIRKORLIKKA QIZIQISHI BO‘LGAN
QATLAMLARI BILAN ISHLASH BO‘LIMI**

BOSH MUTAXASSIS

Lavozimga mos asosiy talab va vazifalar

Talablar:

- nomzod 28-45 yoshdan oshgan bo‘lishi;
- iqtisodiyot, moliya, texnika va boshqa yo‘nalishlarda oliy ma‘lumotga ega bo‘lish (bakalavr);
- iqtisodiyot, moliya, xalqaro tashkilotlar va bank va shunga yaqin yo‘nalishlarda hamda oliy o‘quv yurtlari yoki ilmiy-tadqiqot markazlarida kamida 1 yil ish stajiga ega bo‘lish;
- rus va o‘zbek tillarini mukammal bilish hamda o‘z fikrlarini bayon qilish;
- kompyuter savodxonligi bo‘yicha – Microsoft Word, Excel va Power Point dasturlarida professional darajada ishlay olish;
- moliya, bank, iqtisodiyot, shuningdek, oliy o‘quv yurtlari yoki ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib boruvchi rus va ingliz tilini mukammal biladigan nomzodlarga afzalliklar beriladi;
- nazariya bilan amaliyotni bog‘lash ko‘nikmalariga ega bo‘lish, asoslangan tahliliy materiallarni tayyorlash va himoya qila olish;
- jamoada ishlash, o‘z qarashlarini himoya qila olish.

Vazifalar:

1. Aholini tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga qiziqishi va manfaatdorligini oshirish.
2. Aholida tadbirkorlik sohasida zaruriy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o‘qitish tizimini joriy etish, mazkur jarayonga xalqaro tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlari va nodavlat ta‘lim tashkilotlarini keng jalb qilish.
3. Respublika hududlarida aholining tadbirkorlikka qiziqishi bo‘lgan qatlamlarini hamda tadbirkorlarning biznes va tadbirkorlik ko‘nikmalari bo‘yicha filiallarda qisqa muddatli pullik kurslarini monitoring qilib borish.

- 4.** Oilaviy tadbirkorlik dasturlari orqali kredit olishni mo'ljallangan aholi qatlamlari uchun hududiy filiallar tomonidan qisqa muddatli kurslarning o'tkazilib borishini monitoring qilish.
- 5.** Aholi tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga oid ijtimoiy dasturlarni iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uyg'un va muvofiqlashtirilgan holda ishlab chiqish.
- 6.** Tadbirkorlik ko'nikmasi va tajribasiga ega bo'lgan aholini va boshqa kichik biznes vakillari salohiyatini ro'yobga chiqarish orqali ular faoliyatini kengaytirish va rivojlantirishga qaratilgan to'laqonli tizimni yaratish.
- 7.** Boshqarma boshlig'i tomonidan berilgan bo'lim faoliyatiga taalluqli vazifalarni o'z vaqtida hech qanday kechikishsiz, so'zsiz bajarish.
- 8.** Ish hajmi, sifati, miqdori va iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha rejalarni vaqtida bajarish.
- 9.** O'z ishini to'g'ri va unumli tashkillashtirish, rejalashtirish va ustuvorlik darajasini oshirish.
- 10.** Mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi, yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilish.
- 11.** Mavjud bo'lgan jihozlardan to'g'ri va ehtiyotkorlik bilan foydalanish.
- 12.** O'z bilim saviyasini va malakasini muntazam oshirib borish.
- 13.** Lavozimga mos boshqa talablar bajarish.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIY TARAQQIYOT VA KAMBAG‘ALLIKNI
QISQARTIRISH VAZIRLIGI**

**BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI
HUDUDIY FILIALLARI**

“Tadbirkor ko‘nikmalari” kafedrası o‘qituvchisi

Kafedra mudiri

Lavozimga mos asosiy talab va vazifalar

Talablar:

- nomzod 30-55 yoshdan oshmagan bo‘lishi;
- kafedra mudiri zamonaviy ta‘lim standartlariga javob beradigan, respublika iqtisodiyotini rivojlantirish bo‘yicha muhim vazifalarni hal etishga qodir bo‘lgan iqtisodiyot sohalari bo‘yicha, shuningdek tadbirkorlik va biznesni boshqarish sohalarida, oliy ta‘lim, oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash bo‘yicha chuqur kasbiy bilimlarga va ilmiy, ijodiy salohiyatga, yuksak intellektual qobiliyat va axloqiy fazilatlariga ega bo‘lish lozim;
- kafedra mudiri professor yoki dotsent ilmiy unvoniga, fan nomzodi, fan doktori yoki fan doktori (PhD) ilmiy darajasiga, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning tegishli mutaxassislik bo‘yicha ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo‘lgan shaxslar tanlovda ishtirok etish mumkin;
- iqtisodiyot, moliya, bank yoki oliy ta‘lim yo‘nalishlarida kamida 5 yillik ish tajribaga ega bo‘lish kerak;
- notiqlik san‘ati talab etiladi;
- tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha amaliy va nazariy ko‘nikmalarga ega bo‘lish kerak;
- vaziyatlarni kuchli tahlil qiladigan va olingan ma‘lumotlarni to‘liq uzatish qobiliyatiga ega bo‘lish;
- kompyuter savodxonligi bo‘yicha – Microsoft Word, Excel va Power Point dasturlarida professional darajada ishlay olish;
- moliya, bank, iqtisodiyot, shuningdek, oliy o‘quv yurtlari yoki ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib boruvchi rus va ingliz tilini mukammal biladigan nomzodlarga afzalliklar beriladi.

Vazifalar:

1. Bevosita kafedra faoliyatini tashkil etadi va boshqaradi.
2. Kafedra ixtisosligining aniq yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv fanlarning o‘quv-uslubiy ta‘minoti (o‘quv reja va dasturlar, test savollari, baholash mezonlari, ma‘ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar, mustaqil tahlim mavzulari va to‘shiriqlari,

axborot va pedagogik texnologiya vositalari, o'quv-uslubiy ishlar, o'quv qo'llanma va o'quv-uslubiy ko'rsatmalar)ni kafedraning dotsenti bilan birgalikda ishlab chiqish jarayoni boshqarilishiga mas'ul yetakchi shaxs sifatida o'quv-uslubiy va pedagogik rahbarlik qiladi.

- 3.** Hududiy filial miqyosida, uning turli majlislarida va Ilmiy kengashida kafedra faoliyatiga tegishli masalalar muhokamasi va hal etilishida ishtirok etadi.
- 4.** Kafedra ish rejasi, hisobotlarini va kafedra faoliyati doirasidagi boshqa hujjatlarni tasdiqlaydi, kafedra majlisiga raislik qiladi.
- 5.** Hududiy filialning boshqa xodimlari bilan birgalikda o'quv kurslarini tashkil etishda bevosita ishtirok etadi.
- 6.** Hududiy filiallar tomonidan tashkil etilgan o'quv kurslarini o'quv dasturlari asosida belgilangan tartib va muddatlarda muntazam ravishda o'qitadi.
- 7.** Tadbirkorlik o'quv kurslari yo'nalishida o'quv jarayonini ilg'or ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirib borish, tadbirkorlik subyektlari, aholi hamda yoshlarni tadbirkorlikka o'qitishni yangi bosqichga olib chiqadi.
- 8.** Ishlab chiqarish tashkilotlari bilan hamkorlikni o'rnatadi va muntazam rivojlantirib boradi.
- 9.** Oliy maktabning tegishli xizmat bo'linmalari bilan birgalikda o'quv-uslubiy, "ustoz-shogird" ishlari va ilmiy-tadqiqot jarayonlarini talab darajasida o'tkazish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni ta'minlash choralari amalga oshiradi.
- 10.** Ilmiy va o'quv-uslubiy qo'llanmalar (flaer, buklet, o'quv qo'llanmalari)ni chop etadi.
- 11.** Xorijiy hamkor oliy ta'lim muassasalarida stajirovka o'tashi, ilmiy ishlar bajarishi, malaka oshirishini rejalashtiradi.
- 12.** Oliy maktab hamkorligida xalqaro va respublika miqyosida ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminar va forumlarni rejalashtiradi va ularni o'tkazadi.
- 13.** Belgilangan tartib va muddatlarda o'quv yilidagi faoliyati bo'yicha kafedra hisobotini tayyorlaydi, Oliy maktab Ilmiy kengashi majlislarida hisobot beradi.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIY TARAQQIYOT VA KAMBAG‘ALLIKNI
QISQARTIRISH VAZIRLIGI**

**BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI
HUDUDIY FILIALLARI**

“Tadbirkor ko‘nikmalari” kafedrası yqituvchisi

Dotsent

Lavozimga mos asosiy talab va vazifalar

Talablar:

- nomzod 30-55 yoshdan oshmagan bo‘lishi;
- dotsent lavozimini egallash uchun tanlovda dotsent ilmiy unvoniga, fan nomzodi, falsafa doktori, iqtisodiyot fanlari doktori, fan doktori ilmiy (DS) darajasiga, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning tegishli mutaxassislik bo‘yicha ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo‘lgan shaxs ishtirok etishi mumkin;
- kafedra dotsenti 5 yildan kam bo‘lmagan mehnat stajiga ega bo‘lgan fan doktori ilmiy darajasiga yoki professor ilmiy unvoniga, fan nomzodi, dotsent ilmiy unvoniga, shuningdek xorijiy mamlakatlarning tegishli mutaxassislik bo‘yicha ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo‘lgan shaxslar kiritiladi;
- notiqlik san‘ati talab etiladi;
- tadbirkorlik faoliyati bo‘yicha amaliy va nazariy ko‘nikmalarga ega bo‘lish kerak;
- vaziyatlarni kuchli tahlil qiladigan va olingan ma‘lumotlarni to‘liq uzatish qobiliyatiga ega bo‘lish;
- kompyuter savodxonligi bo‘yicha – Microsoft Word, Excel va Power Point dasturlarida professional darajada ishlay olish;
- moliya, bank, iqtisodiyot, shuningdek, oliy o‘quv yurtlari yoki ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib boruvchi rus va ingliz tilini mukammal biladigan nomzodlarga afzalliklar beriladi.

Vazifalar:

1. Bevosita kafedra mudiri boshchiligida filial faoliyatini tashkil etishda faol ishtirok etadi.
2. Kafedra ixtisosligining aniq yo‘nalishi bo‘yicha o‘quv fanlarning o‘quv-uslubiy ta‘minoti (o‘quv reja va dasturlar, test savollari, baholash mezonlari, ma‘ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar, mustaqil ta‘lim mavzulari va topshiriqlari,

axborot va pedagogik texnologiya vositalari, o'quv-uslubiy ishlar, o'quv qo'llanma va o'quv-uslubiy ko'rsatmalar)ni kafedra mudiri bilan birgalikda ishlab chiqish jarayoni boshqarilishiga mas'ul yetakchi shaxs sifatida hisoblanadi.

3. Biznes va tadbirkorlik ko'nikmalari bo'yicha kafedra mudiri bilan birgalikda sifatli o'qitishni hamda tinglovchilar tomonidan mustaqil ish, amaliyotlar va tanlovlar o'tkazishni ta'minlash.

4. Hududiy filialning boshqa xodimlari bilan birgalikda o'quv kurslarini tashkil etishda bevosita ishtirok etadi.

5. Hududiy filiallar tomonidan tashkil etilgan o'quv kurslarini o'quv dasturlari asosida belgilangan tartib va muddatlarda muntazam ravishda o'qitadi.

6. Tadbirkorlik o'quv kurslari yo'nalishida o'quv jarayonini ilg'or ta'lim texnologiyalari asosida takomillashtirib borish, tadbirkorlik subyektlari, aholi hamda yoshlarni tadbirkorlikka o'qitishni yangi bosqichga olib chiqadi.

7. Oliy maktabning tegishli xizmat bo'linmalari bilan birgalikda o'quv-uslubiy, "ustoz-shogird" ishlari va ilmiy-tadqiqot jarayonlarini talab darajasida o'tkazish uchun zarur bo'lgan sharoitlarni ta'minlash choralari amalga oshiradi.

8. Belgilangan tartib va muddatlarda o'quv yilidagi faoliyati bo'yicha kafedra hisobotini tayyorlaydi, Oliy maktab Ilmiy kengashi majlislarida hisobot beradi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIY TARAQQIYOT VA KAMBAG‘ALLIKNI
QISQARTIRISH VAZIRLIGI

BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI
HUDUDIY FILIALLARI

HUQUQIY MASALALAR BO‘YICHA BO‘LIM

BOSH MUTAXASSIS

Lavozimga mos asosiy talab va vazifalar

Talablar:

- oliy yuridik ma’lumotga ega bo‘lish;
- mutaxassislik bo‘yicha kamida 3 yil ish stajiga ega bo‘lish;
- davlat tilini mukammal bilish, rus va ingliz tilini bilish nomzodlarga ustuvorlik beradi;
- faoliyat yo‘nalishlari bo‘yicha qonunchilik va huquq amaliyotini yuqori saviyada bilish;
- huquqiy va rasmiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash;
- jamoada ishlash qobiliyatiga ega bo‘lish;
- sohani va qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash;
- qaror qabul qilish va kommunikabellik qobiliyatiga ega bo‘lish;
- huquqiy targ‘ibot ishlarini amalga oshirish;
- kompyuter savodxonligi bo‘yicha – Microsoft Word, Excel va Power Point dasturlarida professional darajada ishlay olish;
- qonunchilik texnikasi asosida mustaqil normativ-huquqiy hujjat loyahasini ishlab chiqa olish;
- huquqni qo‘llash faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni ta’minlashni tashkil etish.

Vazifalar:

1. Bo‘lim faoliyatiga taalluqli bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va kelishishda qatnashadi.

2. Tadbirkorlik faoliyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatadigan normativ-huquqiy va texnik tartibga solish, hujjatlar yalpi xatlovdan o‘tkazilishini muvofiqlashtirishda, xatlovdan o‘tkazilayotgan hujjatlar ro‘yxatini tuzishda idoralararo komissiyasi tarkibida ishtirok etadi.

3. Normativ-huquqiy xujjatlar loyihalari bo'yicha e'tiroz va takliflar bo'lmasa, ularga imzo qo'yadi.

4. Shartnomalarni tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilishning belgilangan tartibiga rioya etilishini nazorat qiladi.

5. Shartnomaviy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolar yuzasidan da'vo ishlari olib borilishini ta'minlaydi.

6. Ishlab chiqilayotgan (qabul qilinayotgan) normativ-huquqiy va boshqa hujjatlar loyihalarining qonunchilikka muvofiqligi ustidan nazoratni olib boradi.

7. Qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun va ahamiyatini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali yetkazishda ishtirok etadi.

8. Tegishli tuzilmalarda qonun buzilishlarini, ularning sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish yuzasidan takliflar kiritadi.

9. Oliy maktab hamda ularning mansabdor shaxslari faoliyatida qonuniylikning buzilishi ko'rsatilgan arizalar, takliflar va shikoyatlarni ko'rib chiqishda ishtirok etadi.

10. Oliy maktab xodimlarining huquqiy madaniyati va huquqiy savodxonligini oshirishda ularga qabul qilinayotgan huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini yetkazadi.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIY TARAQQIYOT VA KAMBAG‘ALLIKNI
QISQARTIRISH VAZIRLIGI

BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI
HUDUDIY FILIALLARI

TEXNIK VA XO‘JALIK XIZMATLARINI KŶRSATISH
BŶYICHA BŶLIM

BOSH MUTAXASSIS

Lavozimga mos asosiy talab va vazifalar

Talablar:

- nomzod 23-55 yoshdan oshmagan bŶlishi;
- iqtisodiyot, moliya, muxandislik-texnika va boshqa yo‘nalishlarda oliy ma‘lumotga ega bo‘lish (bakalavr);
- iqtisodiyot, moliya, bank, texnik sohalarida yoki shunga o‘xshash yo‘nalishlarda kamida 1 yillik ish tajribaga ega bo‘lish;
- filialning asosiy vositalari, ofis jihozlari va orgtexnika vositalarini ro‘yxatini yurita olish, ularning but va soz holatini ta‘minlay olish;
- tashkiliy ishlarni amalga oshira olish;
- moddiy javobgarlik;
- texnik va xo‘jalik xizmatlarini ko‘rsatishda vujudga keladigan hujjatlar va hisobotlar bilan ishlay olish;
- kompyuter savodxonligi bo‘yicha – Microsoft Word, Excel va Power Point dasturlarida professional darajada ishlay olish;
- moliya, bank, iqtisodiyot, shuningdek, oliy o‘quv yurtlari yoki ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib boruvchi rus va ingliz tilini mukammal biladigan nomzodlarga afzalliklar beriladi.

Vazifalar:

1. Hududiy filialning texnik va xo‘jalik xizmat ko‘rsatish ishlarini amalga oshirish.
2. Filial ehtiyojlari uchun sotib olingan turli xil boyliklarni saqlash, berish va hisobga olishni tashkil etish.
3. Filialning barcha binolarida to‘liq xizmat ko‘rsatishni tashkil etish, ushbu xizmatning bajarilishini nazorat qilish, kamchiliklarini bartaraf etish.
4. Tashkilotlarni qidirish va ular bilan kommunal xizmatlar, elektr tarmoqlari, aloqa tarmoqlariga texnik xizmat ko‘rsatish to‘g‘risida shartnomalar tuzish.
5. Favqulodda holatlarda tinglovchi va xodimlar xavfsizligini ta‘minlash va yong‘in xavfsizligi qoidalariga rioya etilishini nazorat qilish.

- 6.** Xodimlarning mehnat qilishi va dam olishi uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qulay sharoitlarni tashkil etish.
- 7.** Kompaniya mulkining zaruriy himoyasini ta'minlash.
- 8.** Filialning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va rivojlantirish tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirish.
- 9.** Oliy maktab rahbariyati va filial rahbari tomonidan berilgan bo'lim faoliyatiga taalluqli boshqa vazifalarni bajarish.
- 10.** Lavozim yo'riqnomasiga mos boshqa talablar.